

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Raqobatni rivojlantirish**  
**va iste’molchilar huquqlarini**  
**himoya qilish qo‘mitasi**  
**raisi o‘rinbosari**

\_\_\_\_\_ **F. Karabayev**

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 yil

M.O‘.

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Iqtisodiyot va moliya vazirligi**  
**huzuridagi Soliq qo‘mitasi**  
**raisi o‘rinbosari**

\_\_\_\_\_ **J. Abdiyev**

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 yil

M.O‘.

**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi**  
**hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining axborot tizimlarini**  
**o‘zaro integratsiya qilish orqali dori vositalarining chakana savdosida jamoatchilik**  
**nazoratini joriy etish bo‘yicha**  
**TEKNOLOGIK YO‘RIQNOMA**  
*(versiya 1.0)*

**Toshkent-2023 yil**

---

## **Mundarija**

Kirish .....	3
Aniqlovchilar, eslatmalar va qisqartmalar .....	4
Loyihani amalga oshirish asosiy maqsadi va vazifalari .....	5
Loyihani biznes-mantig‘ining ishlash tamoyili .....	6
Umumiy holat .....	10
Texnik tuzilmaga talablar .....	11
Yuboriladigan ma’lumotlarga talablar .....	12
Yuboriladigan ma’lumotlar davriyligi .....	13
Xavfsizlik uchun talablar .....	14
Tomonlarning javobgarligi .....	15
Hujjatning JSON tuzilmasi tasnifi .....	16
Loyihani modernizatsiya qilish va rivojlantirish .....	18
Kelishuv varag‘i .....	19

---

## **Kirish**

Ushbu Texnologik yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-noyabrdagi "Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-411-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Aholini sifatli dori vositalari bilan ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha" Yo'l xaritasining 9-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida dori vositalarining chakana savdosida jamoatchilik nazoratini joriy etish bo'yicha Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish talablari belgilangan.

Mazkur Texnologik yo'riqnomada quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- amalga oshirish tamoyillari va asosiy maqsadlar;
- umumiy holat;
- texnik tuzilmaga talablar;
- yuboriladigan ma'lumotlarga talablar;
- yuboriladigan ma'lumotlar davriyligi;
- xavfsizlik uchun talablar;
- javobgar tomonlar;
- loyihani modernizatsiya qilish va rivojlantirish

---

## **Aniqlovchilar, eslatmalar va qisqartmalar**

Ushbu Texnologik yo‘riqnomada quyidagi atamalardan foydalaniladi:

- **RQ** – Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi;
- **SQ** – Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi;
- **FTRA** – Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi;
- **AT** – Axborot tizimlari;
- **MB** – Ma‘lumotlar bazasi;
- **IMUT** – Idoralararo ma‘lumot uzatish tarmog‘i.

---

### **Loyihani amalga oshirishning asosiy maqsadi va vazifalari**

Loyihani amalga oshirishning asosiy maqsadi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi axborot tizimidagi dori vositalarining chakana referent narxlarini axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali avtomatik tarzda solishtirish yo'li bilan dori vositalarining chakana savdosi ustidan onlayn nazorat o'rnatishdan iborat.

Loyihani amalga oshirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- dori vositalarining chakana savdosida jamoatchilik nazoratini joriy etish;
- dori vositalari narxlarini Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi axborot tizimidagi dori vositalarining chakana referent narxlari bilan avtomatik tarzda solishtirish;
- iste'molchilarning murojaatlari holatini onlayn kuzatish;
- Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan etalon narxlarni shakllantirish tizimining operativ monitoringi va tahlilini olib borish.

## Loyihani biznes-mantig'ining ishlash tamoyili

Loyihani vazifalarini amalga oshirishning asosiy texnik qadamlar ketma-ketligining tasnifi:

Dastlabki ma'lumotlar asosida narxlar oshirilganligi aniqlangan taqdirda SQ axborot tizimi orqali (SoliqUZ) murojaat ko'rinishida avtomatik ravishda «FAIR TECH» YaATga kelib tushadi va tizim orqali murojaatda ko'rsatilgan telefon raqamiga avtomatik ravishda SMS-xabar yuboriladi. Shundan so'ng, iste'molchi tomonidan SMS-xabarga 3 ish kun ichida berilgan javob asosida murojaat ko'rib chiqiladi yoki rad etiladi.

«FAIR TECH» YaATdagi mas'ul xodim murojaatni o'rganib chiqib kerakli boshqarmaga yo'naltiradi va murojaatni mazmunan ko'rib chiqish boshlanadi.


Tizimda murojaatni ko'rib chiqish tartibi:

SQ tomonidan yuborilgan boshlang'ich ma'lumotlar tizimda ruyxatga olinganidan keyin, murojaat avtomatik ravishda Hududiy boshqarmalarga yo'naltiriladi. Hududiy bo'lim boshlig'i tizim orqali murojaatni birlamchi o'rganib chiqadi agar kamchilik, xato aniqlansa murojaatni Rad etadi va qayta ko'rib chiqish uchun Markaziy apparat xodimiga qaytariladi. Murojaat kamchiliksiz, xatosiz deb topilgan holatda hududiy bo'lim boshlig'i tizim orqali ijrochi(lar)ni belgilaydi va murojaat ijrosi boshlanadi:

- murojaat o'rganib chiqilgandan so'ng, haqiqatda dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirilganligi aniqlangan taqdirda qonun tomonidan belgilangan hujjatlar shakillantirilib va tasdiqlantirilib dorixona egasiga belgilangan tartibda yuboriladi.

To'lov amalga oshirilganidan keyin dorixona egasiga ortiqcha to'langan pulni iste'molchiga qaytarib berilganligi haqida hududiy bo'linmaga ma'lumot beradi va tizim tomonidan ro'yxatga olinib iste'molchiga to'lov amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumot yuboriladi.

- murojaat o'rganib chiqilgandan so'ng, haqiqatda dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirilmaganligi aniqlangan taqdirda murojaat ijrosi yakunlanadi. (1-Rasm)



1-Rasm. Ma'lumotlar almashinuvi jarayoni

“FAIR TECH” YaAT orqali iste’molchi haqiqatda dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirilganligi haqidagi murojaatini holatini onlayn ravishda kuzatib borish imkoniyati yaratiladi.

Murojaatni onlayn kuzatib borish iste’molchi unga yuborilgan SMS-xabardagi xavola bilan “FAIR TECH” YaATning murojaatlar oynasi orqali amalga oshiriladi.

Ariza shakli #1

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi	
Murojaat (ID 0123456)	
Arizachi F.I.SH	Abdullayev Abdulla Abdullayevich
Arizachi telefon nomeri	+99(890)1234567
Arizachi JSISHIRI	0011223344556677
Ariza yuborilgan sana	2022.02.06 (19:14)
Dori nomi	Хило-Кея 10мл
MXIK kodl	12345678912345678
Sotilgan narxi	145 000 so'm
Referent narxi	105 000 so'm
Ortiqcha to'langan summa	20 000 so'm
Sotishga ruxsat etilgan eng yuqori narx	125 000 so'm
Chek raqami	00112233445566778899
Dorixona nomi	2022.02.06 (19:14)
Dorixona STIRI	012345678
Dorixona manzili	Xxxxxxx, xxxxxxxx, Xx 00
Dorixona elektron pochtasi	xxxxxx@xxxx.xx

Sana: 01.01.2023y

2-rasm. Ma'lumotlar almashinuvi jarayoni

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

Murojaat (ID 0123456)	
Arizachi F.I.SH	Abdullayev Abdulla Abdullayevich
Arizachi telefon nomeri	+99(890)1234567
Arizachi JSHSHIRI	0011223344556677
Ariza yuborilgan sana	2022.02.06 (19:14)
Dori nomi	Хило-Кея 10мл
MXIK kodi	12345678912345678
Sotilgan narxi	145 000 so'm
Referent narxi	105 000 so'm
Ortiqcha to'langan summa	20 000 so'm
Sotishga ruxsat etilgan eng yuqori narx	125 000 so'm
Chek raqami	00112233445566778899
Dorixona nomi	2022.02.06 (19:14)
Dorixona STIRI	012345678
Dorixona manzili	Ххххххх, ххххххх, Хх 00
Dorixona elektron pochatasi	хххххх@ххххх.хх
Dorixona direktori F.I.SH	Ibragimov Ibragim Ibragimovich
Dorixona direktori telefon raqami	+99(899)1234567
Dorixona direktori pasporti seriyasi va raqami	AA 1234567
Dorixona direktori JSHSHIRI	00112233445566778899
Dorixona xisobchisi F.I.SH	Tolibov Tolib Tolibovich
Dorixona xisobchisi telefon raqami	+99(897)1234567
Dorixona xisobchisi pasporti seriyasi va raqami	AA 1234567
Dorixona xisobchisi JSHSHIRI	00112233445566778899

Sana: 2023.02.08

Ijro etadigan boshqarma:

Markaziy boshqarma

Ijrochi:

Tanlang

Ijro muddati:

14 kun 23 soat 5 minut

Rad etish

Saqlash

Yuborish

3-Rasm. Ma'lumotlar almashinuvi jarayoni



### Murojaat bo'yicha fuqarolarga SMS xabar yuborish

Murojaat raqami va sanasi\*

UZB\*      Kod\*      Telefon raqami\*

+998      Kod      ###-##-##

Hududni tanlash\*

SMS xabar matni\*

Matn ...

Murojaat raqami va sanasi

Telefon raqami

Tanlangan hudud

4-rasm. Ma'lumotlar almashinuvi jarayoni

### Murojaatlar

SMS da yuborilgan IDni kiriting

ID	Boshqarma nomi
Hujjat holati	Hujjat holati
Murojatchi	Bajarish muddati
Murojaat yuborilgan sana	Ijro qilingan sana
Chek raqami	Ijrochi
Dorixona nomi	Murojaat ijrosi
Dori nomi	<input type="button" value="Fayl qoshing"/> <input type="button" value="+"/>
Sotilgan narx	<div style="border: 1px solid #ccc; height: 60px; width: 100%;"></div>
Referent narx	<input type="button" value="Tahrirlash"/> <input type="button" value="Saqlash"/> <input type="button" value="Yuborish"/>
Qaytariladigan summa	
Chek raqami	
Dorixona nomi	
Dori nomi	

5-rasm. Ma'lumotlar almashinuvi jarayoni

### Umumiy holat

Ushbu hujjat RQ hamda SQ o'rtasida elektron ma'lumot almashish uslublarini tartibga soladi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

USLUB tartib raqami	Nomlanishi	Yuboruvchi	Qabul qiluvchi
1.	Dori vositasining xarid narxini mavjud referent narxiga onlayn solishtirish	SQ	FTRA
	Dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirilganligi haqidagi ma'lumot	FTRA	CK
	Dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirgan dorixona va iste'molchi haqidagi ma'lumot	SQ	RQ
2.	Dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirilgan to'lovlarni qaytarish haqida ma'lumot	RQ	SQ

Ushbu hamkorlik doirasida ma'lumot ikkita axborot tizimlari o'rtasida ma'lumot almashiniladi:

- RQ AT;
- SQ AT.

Ma'lumotlar veb-xizmatlar yordamida uzatilishi kerak.

Yuboriladigan ma'lumotlar ushbu texnik ko'rsatmada ko'rsatilgan talablarga mos kelishi zarur.

Elektron ma'lumot almashish tizimini ishlab chiqish jarayonida ikkala tomon o'zaro kelishgan holda ma'lum bir texnik tafsilotlarga o'zgartirishlar kiritish huquqiga egadirlar va o'zgarishlar sodir etilgan taqdirda ikkinchi tomonni ushbu o'zgarish to'g'risida habardor qilishi shart.

---

## **Texnik tuzilmaga talablar**

Texnik tuzilma quyidagi komponentlardan iborat bo'lishi kerak:

- SQ AT ma'lumotlar bazasi serveri;
- SQ AT dasturiy ta'minot serveri;
- Xavfsiz aloqa qanali;
- RQ AT dasturiy taminot serveri;
- SQ ma'lumotlar bazasi serveri.

Himoyalangan axborot kanali o'tkazuvchanligi kamida 1 mb/sek bo'lishi kerak.

Xatoliklar to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu texnologik yo'riqnomaning 1-ilovasida keltirilgan.

Ma'lumot almashish uslubi

Ma'lumot almashish uslubi quyidagicha:

- SQ AT dasturiy ta'minot serveri API-ni REST-API shaklida amalga oshiradi
- RQ AT dasturiy taminot serveri so'rov yuboradi va ma'lumotlarni JSON shaklida oladi

## Yuboriladigan ma'lumotlarga talablar

Ushbu bo'lim o'zaro elektron ma'lumot almashish jarayonida uzatiladigan ma'lumotlar shakli va tarkibi uchun talablarni tavsiflaydi.

Ma'lumotlar JSON ko'rinishida yuborilishi lozim.

Ma'lumot turlari va shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Rekvizit	Kod	Ta'rifi	
Majburiyat	"M"	Qiymatning majburiyligini aniqlash	
		"+"	Majburiy– ushbu maydonda qiymat bo'lishi majburiy
		"–"	Majburiy emas – ushbu maydonda qiymat bo'lishi majburiy emas
		"±"	Shartli ravishda majburiy – ushbu maydondagi qiymat ma'lum bir shartlarda majburiy
Qiymat turi	"T"	Qiymat turini (tip) aniqlash	
		"K"	Kod (qiymat boshida "0" ni qabul qilish sharti bilan)
		"N"	Butun son
		"S"	Kasr sonlar (virguldandan keyin ikkita qiymat qabul qilish sharti bilan)
		"D"	Sana, format KK.OO.YYYY
		"T"	Vaqt, format SS:DD:SS, (SS – 00 dan 23 gacha)
		"DT"	Sana va vaqt, format KK.OO.YYYY SS:DD:SS, (SS – 00 dan 23 gacha)
		"L"	Qator
		"I"	Identifikator, razresheni simvoli so sleduyushimi ASCII-kodlarining qo'yidagi simvollariga ruxsat etiladi: 95, 48dan 57gacha, 65dan 90gacha va 97dan 122gacha (_, 0-9, A-Z, a-z)
		"B"	Qator Base64 formatda
		"C"	Ko'chmas mulkning kadastr raqami
		"P"	Telefon raqami xalqaro formatda (+998...), ITU-T E.164 ga mos ravishda
		"E"	Elektron pochta manzili RFC 822 i RFC 1123 ga mos ravishda
"O"	Obyekt, boshqa rekvizitlar bilan		
"A"	Bir xil tipdagi obyektli massiv		
Hajmi	"S"	Qiymatning maksimal uzunligi Kasr sonli qiymatlarda virguldandan keyingi sonlar ko'rsatiladi Massivlar uchun maksimal elementlar soni ko'rsatiladi	
Katalog	"R"	Katalog raqami– rekvizitlar saqlangan katalog raqamini bildiradi	

### **Yuboriladigan ma'lumotlar davriyligi**

Ushbu bo'limda SQ dasturiy ta'minot serveri tomonidan yuboriladigan RQ dasturiy ta'minot serveri qabul qiladigan ma'lumotlar davriyligi aniqlanadi.

<b>Tartib raqami</b>	<b>Yuboriladigan ma'lumot</b>	<b>Yuborish vaqti</b>	<b>Ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar yangilanish vaqti</b>	<b>Yuboruvchi</b>
1	Dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirgan dorixona va iste'molchi haqidagi ma'lumot	24/7	Onlayn tarzda	SQ

---

## Xavfsizlik uchun talablar

Axborot almashinuvining xavfsizligi quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

- Idoralararo ma'lumot almashish tarmog'i (IMUT) orqali;
- SQ axborot tizimiga ulanish 10.190.0.178:xxxx (xxxx-dasturiy ta'minot porti) IP adres orqali amalga oshiriladi;
- RQ axborot tizimiga ulanish 10.190.X.X(to'ldirishi shart):xxxx (xxxx-dasturiy ta'minot porti) IP address orqali amalga oshiriladi;
- Dasturiy ta'minot portlari tizim ishga tushirilganda xabardor qilinadi;
- Veb-servisga autentifikatsiya qilish uchun so'rov matniga TOKEN (bearer token) parametri sifatida kiritilgan noyob token ishlatiladi;
- Token amal qilish muddati bir oy;
- Token yangilash Qo'mita tomonidan berilgan avtorizatsiya parametrlarini ("client\_id", "client\_secret") belgilangan veb-manzilga yuborish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumot uzatish tarmog'i darajasidagi xavfsizlikka ishonli aloqa kanallari bilan ma'lumot uzatish orqali erishiladi.

---

### **Tomonlarning javobgarligi**

Yuboruvchi va qabul qiluvchi tomonlar ma'lumotlar to'g'riligi, ishonchligi va o'z vaqtida yuborilishi uchun mas'uldirlar.

Ma'lumotlar yuborish tizimi ishlamay qolsa har bir tomon o'z tizimini 12 ish soati ichida ishga tushirishi zarur.

Har bir so'rov va javobning kutish vaqti 30 soniyadan oshmasligi kerak.

## Hujjatning JSON tuzilmasi tasnifi

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasidan dori vositasining referent narxiga nisbatan asossiz ravishda oshirilganligi haqidagi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘yicha so‘rov.

So‘rov yuboruvchi: RQ

(1-usul) Yuboriladigan ma’lumotlarning JSON ko‘rinishi:

```
{
  "data": {
    "consumer": {
      "lastName": "",
      "firstName": "",
      "middleName": "",
      "pinfl": "",
      "phone": ""
    },
    "medication": {
      "name": "",
      "mxikCode": "",
      "paymentPrice": "",
      "referentPrice": "",
      "paymentDate": "",
      "checkNumber": "",
      "founderSharePercent": "",
      "founderShareSum": ""
    },
    "pharmacy": {
      "name": "",
      "tin": "",
      "email": "",
      "address": ""
    }
  }
}
```

1. Yuborilgan so‘rovlarga javob xabar.

So‘rov asosida ma’lumot yuboruvchi: SQ

### Javobga qo‘yiladigan talabnoma:

Yuboriladigan ma’lumotlarning JSON tuzilmasi:

№	Номи	Белгиланиши	M	T	S	R
<b>1</b>	<b>Ma’lumotlar</b>	<b>data</b>	+	O		
<b>1.1</b>	<b>Iste’molchi</b>	<b>Consumer</b>	+	O		
1.1.1	Familiyasi	lastName	+	L	50	
1.1.2	Ismi	firstName	+	L	50	
1.1.3	Otasining ismi	middleName	+	L	50	
1.1.4	JSHSHIR	pinfl	+	L	14	
1.1.5	Telefon raqami	phone	-	L	12	
<b>1.2</b>	<b>Dori vositasi</b>	<b>medication</b>	+	O		
1.2.1	Nomi	name	+	L	200	
1.2.2	MXIK kodi	mxikCode	+	S	17	
1.2.3	Sotilgan narxi	paymentPrice	+	N	15	
1.2.4	Referent narxi	referentPrice	+	N	15	
1.2.5	Sotilgan sanasi	paymentDate	+	DT	18	
1.2.6	Chek raqami	checkNumber	+	N	20	
<b>1.3</b>	<b>Dorixona</b>	<b>pharmacy</b>	+	O		
1.3.1	Dorixona nomi	name	+	L	200	
1.3.2	STIR raqami	tin	+	N	9	
1.3.3	E-mail	email	-	L	40	
1.3.4	Manzili	address	+	L	300	
1.3.5	Hudud kodi	soato	+	N	5	



Xatolik bilan yuborilgan so'rovga javob ko'rinishi:

№	Номи	Белгиланиши	М	Т	С	Р
1	Xatolik kodi	code	+	K	7	304
2	Xatolik tavsifi	message	+	L	100	
3	Javob yuborilgan vaqt	Timestamp	-	DT	19	

Javobning JSON ko'rinishi:

```
{  
  "error": "00001",  
  "message": "same message",  
  "timestamp": "01.01.2021 16:44:55"  
}
```

---

### **Loyihani modernizatsiya qilish va rivojlantirish**

Loyihani amalga oshirishda uni yangi vazifa va maqsadlarni belgilash jarayonida minimal vaqt va moliyaviy xarajatlar bilan modernizatsiya qilish va rivojlantirish imkoniyati yaratilishi kerak.

Axborot tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- funksiyalar roʻyxatini kengaytirish;
- axborotni taqdim etish interfeyslari tarkibini kengaytirish;
- talab va takliflarga binoan mazkur Texnologik yoʻriqnomaga oʻzgartirish kiritish.

**Kelishuv varag'i****Tuzuvchilar:** Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

Tarkibiy tuzilma nomi	Ijrochi lavozimi	F.I.Sh.	Imzo, sana
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »

**Kelishildi:** Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi

Tarkibiy tuzilma nomi	Ijrochi lavozimi	F.I.Sh.	Imzo, sana
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »
			_____ 2023-yil «    »